



## **Bolalar ijodkorligini rivojlantirishdagi pedagogik muammolarning mavjud holati.**

**Muminova Nargiza Sabitdjanovna** p.f.f.d. (PhD), dotsent  
**Oripova Nargizaxon Zafarjon qizi**

Qo‘qon davlat universiteti Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(Maktabgacha ta‘lim) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti  
nargizaxonoripova583@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda bolalar ijodkorligini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy pedagogik muammolar va ularning hozirgi holati tahlil qilinadi. Muallif ta‘lim tizimidagi an‘anaviy yondashuvlar va zamonaviy talablar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatib o‘tgan. Maqolada bolalarning kreativ qobiliyatlarini cheklovchi omillar, jumladan, pedagogik qoliplar va metodik yetishmovchiliklar yoritilgan. Shuningdek, bolalar ijodiy faolligini oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** bolalar ijodkorligi, pedagogik muammolar, kreativlik, ta‘lim tizimi, innovatsion yondashuv, shaxs rivojlanishi, pedagogik mahorat.

**Abstract:** This article analyzes the main pedagogical problems that arise in the process of developing children's creativity today and their current state. The author shows the contradictions between traditional approaches and modern requirements in the education system. The article highlights the factors that limit children's creative abilities, including pedagogical patterns and methodological shortcomings. Also, scientific and practical recommendations are given on improving the pedagogical conditions necessary to increase children's creative activity.

**Keywords:** children's creativity, pedagogical problems, creativity, education system, innovative approach, personal development, pedagogical skills.

Zamonaviy ta‘lim tizimida bolalarning ijodkorligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ijodkorlik bolalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va yangilik yaratishga bo‘lgan intilishini shakllantiradi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiyati va qobiliyatlari rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi.

Respublikamizda har bir bola tug‘ulganidan oilada tarbiya oladi. Uch yoshdan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga boradi. Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘lim tizimining birinchi boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda maktabgacha ta‘limning ahamiyati katta. Chunki millatning sog‘lom genofondini tarbiyalash shu tizimdan foydalaniladi.<sup>1</sup> Darhaqiqat bola avvalo oilada ota\_ona va oila a‘zolaridan dastlabki ta‘lim va tarbiyani oladi. 3 yoshdan 7

<sup>1</sup> Meliyev.X. Jamolidinova.O. Risqulova.K. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o‘quv qo‘llanma Toshkent zarvaraq nashiryoti 2021.10 bet

yoshgacha maktabgacha ta’lim tashkilotida bilim ko’nikma va malakalarni to’playdi. Bu yosh davri bolaning ulg’ayishida katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

1. An’anaviy o’qitish metodlarining ustunligi. Ba’zi pedagoglar hali ham reproduktiv (tayyor bilimni berish) metodlariga ko’proq tayanadi. Bu esa bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini cheklaydi.

2. Pedagoglarning kreativ pedagogika bo’yicha tayyorgarligi yetarli emasligi. Har bir tarbiyachi ijodkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi zarur. Ammo ayrim hollarda pedagoglarning innovatsion metodlardan foydalanish tajribasi yetarli emas.

3. Ta’lim muhitining yetarli darajada tashkil etilmaganligi. Ijodiy rivojlanish uchun boy va qiziqarli muhit zarur. Ayrim ta’lim muassasalarida didaktik materiallar, ijodiy o’yin vositalari va zamonaviy jihozlar yetarli emas.

4. Bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olmaslik. Har bir bola o’ziga xos qobiliyat va qiziqishga ega. Ammo ba’zi hollarda ta’lim jarayonida individual yondashuv yetarli darajada qo’llanilmaydi.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikning sustligi. Bolalar ijodkorligini rivojlantirish faqat ta’lim muassasasida emas, balki oilada ham davom etishi kerak. Ayrim ota-onalarda bu borada yetarli pedagogik bilim mavjud emas.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang’ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o’z tengdoshlari hamda kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo’lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo’ylik, adolat, jasurlik, kamtarlik kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o’simlik va hayvonlarga g’amxo’rlik bilan qarash, mehnatga ishtiyoq, kattalami mehnat natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Eng muhimi-tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to’g’ri taqdirlash va mustaqil faoliyat qilishlar uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar. Tarbiyachining shaxsiy hamda kasbiy sifatlari. Tarbiyachining pedagogik faoliyati yuqori darajada bo’lishligi kerak. Pedagogiyosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg’or tajribali pedagoglarning tajribasini o’rganib, o’z ishiga tadbiiq eta oladigan bo’lishi;- Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to’g’ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;- Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko’nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, sodda, aniq, mantiqiy, ixcham bo’lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko’nikmalarni yaxshi o’zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;- Tarbiyachi o’ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o’sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg’ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o’stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;- Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo’yishi;- Kun tartibini to’g’ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;- Bolalarning ruhiy va jismoniy

holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi;- Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o’tkazib, axborot almashtirib turishi;- Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo’lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo’lsa ovuntara olishi;- Kun tartibida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo’llarini topa olishi kerak.<sup>2</sup>

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan pedagog ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo’lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo’lib, o’qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. Pedagoglarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning ob’ektlari bo’lmish tarbiyalanuvchi insonga, o’quvchi va o’quvchilar guruhiga hamda alohida o’quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari - ota-onalar, o’qituvchilar, tarbiyachilar, sinfjamoasi, pedagogik jamoa mas’uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta’lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. Pedagogning faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya’ni egallagan bilimlarini o’zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog’lik qo’llay bilishi bilan belgilanadi. Pedagoglarning pedagogik faoliyati samarali bo’lishi uchun zarur bo’lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko’ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to’g’ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan har xil ziddiyatlarni o’z vaqtida bartaraf etish, bolalarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.<sup>3</sup> Bolalar ijodkorligini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

- pedagoglarning kreativ pedagogika bo’yicha malakasini oshirish;
- innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish;
- bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish;
- ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni kuchaytirish.

Shuningdek, interfaol metodlar, loyiha asosida o’qitish va o’yin texnologiyalaridan foydalanish ijodiy rivojlanishga katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar ijodkorligini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda ushbu jarayonda ayrim pedagogik muammolar mavjud bo’lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish kelajakda ularning mustaqil, tashabbuskor va kreativ shaxs bo’lib kamol topishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Meliyev.X. Jamolidinova.O. Risqulova.K. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o’quv qo’llanma Toshkent zarvaraq nashriyoti 2021.10 bet
2. Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA darslik. Toshkent 2022-yil.28-bet.

<sup>2</sup> Esonova Maloxatxon Akilovna MAKTABGACHA PEDAGOGIKA darslik. Toshkent 2022-yil.28-bet.

<sup>3</sup> Xolmatova Ziroat Anvarovna PEDAGOGIK MAHORAT. Toshkent 2024-yil. 9-bet